

QIYOFADAN O'QISH SAN'ATI

Xudoyberdiyev Pardaboy

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası
katta o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston
e-mail: pardaboyxudoyberdiyev@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqola qiyofadan o'qish san'ati pedagog kadrlar uchun nihoyatda zarurligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ilmiy qiyofa, ilmifarosat, san'at, qiyofa, psixologiya, ranglar psixologiyasi*

Annotation. *This article discusses the importance of the art of visual reading for educators.*

Key words: *Scientific image, science, art, image, psychology, color psychology*

O'zbekistonda fan, ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Endilikda yoshlarga ta'lim tarbiya berishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishning g'oyaviy mazmuni yangi talablar asosida amalga oshirilishi lozim bo'lib qoldi. Avvalo, yoshlarimizda o'zlikni anglash xalqimizning ulug' ma'naviy- g'oyaviy qadriyati ekani, ularda ijodiy tafakkur, Falsaviy qarash, kelajakka ishonch bilan intilish tuyg'ularini shakillantirish kabi masalalar dolzarb bo'lib qoldi.

Shu sababli ham ilgari mustabidlik davrida o'rganilmagan, tabiat va jamiyatimizning turli sir – sinoatlarga boy bo'lgan sohalariga boshqacha yondashila boshladik. Ulardan biri psixalogiya fanidir. Hali bu fan sohalari yani, “Qiyofani o'qish san'ati” (Fiziognomika), “Ranglar psixalogiyasi” (Svetapsixologiya), “San'at psixologiyasi” kabi turlari yetarli darajada o'rganilmagan.

Quyida biz qiyofani o'qish san'ati pedagog kadrlar uchun nihoyatda zarurligi xaqida fikirlashamiz.

Kadrlar tayyorlash sifatini yanada oshirish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida umumiy psixologiya fanini o'qitish bilan chegaralanib qolmasdan har bir sohaga mos bo'lgan fan tarmoqlarini kasbiy sohalarga uzviy bog'lab o'tilishi zarur. Chunonchi, pedagogika oliy o'quv yurtlarida qiyofani o'qish san'ati psixologiya fani tarmog'ining o'qitilishi menimcha juda zarur. Chunki, muallim auditoriya o'tirgan talabaning ko'rinishi, harakati, rangi, ovozi, mimikasi va boshqa psixologik holatlari orqali uning xarakterini aniqlab olib, ularning har biriga individual yondasha olishi lozim bo'ladi. Bu esa dars samaradorligini oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonida ijobiy natija beradi.

Yer yuzasida milliardlab insonlar yashasada, ular orasidan aynan o'xshash ikki shaxsni topib bo'lmaydi. Haqiqatdan ham yaratuvchi har bir insonni o'ziga xos alohida individual holda yaratgan. Insonning tashqi qiyofasi, yurish-turishi, uxlashi, gap so'zi, ovozi umuman biror jihati bilan uning tanxo individ ekanligi allaqachon fanda isbotlangan.

"Inson qiyofasini o'qish san'ati" fani juda qiziqarli bo'lib, u insonlarni yuz tuzulishi, rangi, tanasining harakat holatlari, ovozi, xoli kulishi, uxlash holati kabilardan kishining xarakteri yaxshi yoki yomonligini bilish va ular bilan osongina muloqot qilish hamda do'st bo'lishiga yoki yomonlarning ziyon-zahmatidan saqlanishga o'rgatadi.

Xitoyda va Ovroqada ham bu fan bilan shug'ullanish qadimdan to shu kunlargacha davom etib, u fan fiziogiomika deb ataladi.

Ajdodlarimiz tarixiy va badiiy adabiyotlarda inson faoliyati haqida so'z ochishdan avval uning surati, yani tashqi qiyofasini ifodalab berganlar. Asarni boshidanoq bu qahramonlar haqida, kitobxonda ilk taassurotlar vujudga kelgan.

Ajdodlarimiz ma'naviy me'rosiga murojaat qiladigan bo'lsak, qiyofadan o'qish san'ati haqida bir qancha adabiyotlar yozib qoldirilganligining guvohi bo'lamiz. Ularni o'qir ekansiz ota-bobolarimiz bu san'at va ilm bo'yicha uzoq bosh qotirib, odamlarni tashqi belgilaridan ularning xislat va hususiyatini bilib olish mumkin, degan xulosaga kelganliklari ma'lum bo'ladi. Bu haqida turli manbalar bitilgan "Arastu, Aflatun, Buzurgmehr, Luqmoni Hakim haqidagi

hikoyatlarda ham qiyofaga qarab odamni tanish mumkunligi aytiladi. Umuman, odamning qiyofasi ko‘p narsaga bashorat etadi.”

XV asrda yashab o‘tgan Kamoliddin Husayin Boiz Koshifiy axloq mantiq, adabiyotshunoslik, rieziyot, hisob, islom tarixi, ilohiyot, tarix, musiqashunoslik, tasviriy san’at, tabobat kabi sohalar bilan shug‘ullangan. U O‘rta Osiyo olimlari ichida qiyofadan o‘qish san’ati bilan shug‘ullangan yagona mutaffakirlardir. Buyuk olimning “Axloqi muhsiniy” asaridan ayrim parchalarni tavsiya etamiz: “Tishning egri bo‘lmog‘i makru, hiyla hiyonat, tishining orasi ochiq va silliqligi esa adolat, tadbirkorlik belgisidir”

Yuzning go‘шти to‘la va o‘suq bo‘lmog‘i jaholat tezlik belgisidir.

XIV asrda yashagan alloma Muhammad mulla Yunus Hakimjon Shodiyning “Qiyofat ul bashar” nomli risolasida insonning kimligini, uning fe‘l-atvorini qiyofasiga qarab aniqlash borasida, qadimiy sharqda to‘plangan tajribalar kuzatish natijalari umumlashtirilgan. Bayon etilishicha: “Ota – bobolarimiz asrlar osha odamlarning fe‘lu atvorlarini o‘rganganlar, goh yutub, goh aldanganlar, kishilarning gavda tuzulishlariga qarab, bundan xulosa chiqarganlar, bu xulosalar oqibat natijasida dono hakimlar tomonidan yig‘ilib, kitob shakliga kelgan. U “Qiyofat ul-bashar” (“Odamzod qiyofasi”), “Ilmi qiyofa” (“Qiyofadan aniqlash”) va “Ilmi farosat” (“Farosat bilan bilish ilmi”) deb atalgan. Asrlar osha qo‘ldan-qo‘lga o‘tib, avval qo‘lyozma, so‘ng bosma xolda arab, fors va o‘zbek tillarida keng tarqalgan.

Shamsiddin Dunasariyning “Odamni bilish ilmi” risolasidan Sharqda yig‘ilgan insonning tanasi va badab a‘zolari harakatiga, yuzining tuzulishi va rangiga, nafas olishi, ovozi, xatto kulishiga qarab uning kimligini bilish borasidagi kuzatishlar o‘rin olgan . U aytadiki: “Agar odamning xulq-atvori, ta’bi, nazokati, shakli sur’atini bilgansiz, uning yaxshi-yu yomonligini tushuna boshlaysiz. Bu, albatta, hayotda katta naf beradi, sizni balo qazolardan asraydi”.

Bir xikoyatda shunday deyildi: Aytishlaricha, bir kuni hazrati Imom Ja’fari Sodiq (Olloh undan rozi bo‘lsin) safarga chiqdilar. Shaharda bir odamni uchratib qoldi. U kishi chiroyli liboslar kiygan va o‘ziga oro bergan edi. Mazkur kishi

Imomning yo'lini to'sib, tavoze birla salom berdi va Imomning nomini, qaysi shahardan ekanligini so'radi. Imomning kim ekanligini bilgach, uzangisini updi, o'zining ixlos-u e'tiqodini izxor etib, mehmon qilish orzusida uyiga taklif ayladi. Bu valiy zod qanchalar uzr aytsa, u o'z yuzasidan uning ayblari va yomon xulqlaridan ogoh bo'lsalar ham u kishining yalinib – yolvorishi va ortiqcha tavoze ko'rsatgani uchun noiloj taklifini qabul etdilar.

Alqissa, bu kishi ul janob ulovanning jilovidan tutub, shaharga olib kirdi va o'z hovlisiga tushurib, mehmondorchilik amallarini muhayyo qilib, xizmatini joyiga qo'ydi. Ertasiga Hazrati Imom qaytish uchun ruxsat va ijozat so'radilar. Shunda haligi kishi:

Ajabo, meni tolliyim shu qadar shum va buzuq bo'larmiki, zamonning imomi raxnamosi, Ollh Rasulining avlodi o'z ixtiyorlari bilan qadam ranjida etib, qadamlarining nuri bilan qorong'u kulbamizni munavvar qildilar. Qulog'iga g'ulomlik xalqasini taqqan bu kaminaga hayfki, bir necha kun janoblarining xizmatlarini bajo etolmasa va xizmat bahonasi bilan bir necha yaxshi pandu nasihat so'zlarini eshitib, ma'noli, ta'sirli suhbatlaridan mahrum qolsa!- deya iltijoni xddan oshirdi.

Imom uning ko'ngli uchun, bir necha kun hovlisida turushga majbur bo'ldilar.

Akqissa, Hazrati Imom har kuni ketishga ruxsat so'rar u kishi toboro o'z muhabbatini izxor qilib, loyiq xizmatlarni ado etar edi. Shunday qilib, unung havlisida ikki hafta turgach, bir kuni o'z manzillariga qaytmoq ahd qildilar. Imom otga minmoqchi bo'lganlarida u makkor lain chuntagidan bir qoralama qog'oz olib, ul janobga uzatdi. Imom o'qisa, unda mehmondorchilik uchun ketgan barchaa sarfu harajat yozilgan edi. Ul janob hayron bo'lib, bir oz o'ylab turdilar-da, harajat uchun pullari bo'lmaganligi uchun, libosu otini harajat evaziga berib o'zlari piyoda, yalong'och xolatda o'z manzillariga qaytdilar.

Aytishlaricha, Hazrati Imomga bunday muomila qilgan kishining ko'zlari ko'k va kichik, ichkariga botgan edi. Shunday ko'rinishdagi har bir kishi makru hiylali, xiyonatkor, ko'ngli qora, behayo va besharim bo'ladi.

Kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, notiq Amir Temur ham insonni qiyofasidan o'qish san'atini puxta bilgan. U o'zining butun hayoti davomida ushbu san'at ilmidan juda unumli foydalangan. O'zining "Temur o'gitlari"da qiyofa ilmidan juda o'rinli foydalanganini hamda bu san'atni o'rganganidan mamnun ekanini alohida takidlab o'tadi. "Samarqand taxtini egallab, azim Movaraunnahr bizning hukmimizga kirgach, yurtda adolat o'rnatmoqqa ahd etdik. Arqanu davlat atrofida ko'p nabokor mardumlar in qurmoqchi edi. Inchinun, ularning zamzamasidan xunob bo'lib, bir tadbir buyurdim. Bunda "Ilmi qiyofa" ni mukammal eganligim g'oyat qo'l keldi: "Musavvir kelgan arzigo'yning sur'atini chizib, menga kiritsin. Arzigo'yning qiyofasiga boqib, qabulimni aytarmen...."

O'zbekiston xalq rassomi, professor Malik Nabiyeu mashxur Amir Temur portretini yaratishda "Qiyofa ilmi"dan xabardor bo'lgani juda qo'l kelganligi haqida shunday deydi:

".... portret chizish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Bu sohada ishlaydigan ijodkor-rassom, avvalo, arxeologiya, tarix, anatomiya (odamning gavda tuzulishi) va qiyofa ilmi(fiziognomika) fanlarini chuqur bilish kerak. Masalan, mening o'zim plastik anatomiyani o'rganish uchun ToshMIga to'rt yil qatnaganman. Parjda o'qib kelgan Matveev degan o'qituvchimiz bo'lardi. O'ta zukko, bilimli va tajribali ediKabenitida yuzdan ortiqmillatning kalla suyaklari terib quyilgan bo'lib, men u yerda haftalab qolib ketardim. Qosh suzgi erkaklarda burtib chiqishi, ayollarda tekis bo'lishini o'shanda o'ganganman.

-Rassom, - deydi M.Nabiyeu o'zining fantaziyasiz asar yarata olmaydi. Ulug'vorligi va salovatini yanada burttirish maqsadida yelkasini kengroq, buynini yug'onroq oldim, burun kataklarini kengaytirdi, boshini yuqoriroq ko'tardim. Chunki kallani engashgani mag'lublikka ishoradir. Portret tayyor bo'lgach, yuz ko'z ajinlari ko'proq bo'lib qolibdi, degan fikirlar hm bildirildi. Menimcha ajinlar ulug'vorlikdan darak beradi. Qiyofasida o'ychanlik ko'payib ketsa, u olimga o'xshab qolardi. Shuning uchun davlat raxbariga kerak bo'lganlamiki narsalarni

uygʻunlashtirishga harakat qildim. Xullas, 27 ta davlat ustidan gʻalaba qilgan sarkarda porterti ham tengi yoʻq ulugʻvor boʻlishi kerakda ”

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Abdullaev N.U. Tasviriy sanʼat tarixi, Toshkent. Oʻqituvchi.1987 yil
- 2.S. S. Boʻlatov .Sanʼat falsafasi. Toshkent. 2004 й
- 3.Sh. Dunasariy . Odamni bilish ilmi. Toshkent. 1994 y
- 4.R. Maxmudov .Yuzni oʻqish sanʼati // Yoshlik jurnali. 1991- yil 6- son